

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT
VA SPORT ISHLARI VA O'ZBEKISTON DAVLAT SAN'AT VA
MADANIYAT INSTITUTI**

MUSIQIY NAZARIY FANLAR KAFEDRASI

MAVZU: AKKORDLAR

MUSIQA NAZARIYASI FANIDAN

KURS ISHI

BAJARDI: „Kino,televideniye va radio san'ati” fakulteti

**Kasb ta'lim: Folklor etnografik jamoalari
rahbarligi bo'limi talabasi Kozimova E.**

**QABUL QILDI: Musiqiy- nazariy fanlari kafedrası katta
o'qituvchisi ABROROVA M.F.**

Toshkent 2014

MUNDARIJA

Akkord nima?.....	3
Septakkordlar.....	11
Akkordlarning laddagi o'zaro munosabatlarining tizimlanishi.....	20
Dominantseptakkord.....	22
Subdominantseptakkord.....	22
Xulosa.....	24
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	25

AKKORD NIMA?

Bir vaqtda qo'shilib eshitilgan hamda tertsiya bo'yicha joylashgan uch va undan ortiq tovushlarga **akkord** deyiladi. Akkord berilgan pastki tovushdan *yuqoriga qarab* tuziladi.





Uchta tovushdan iborat, tertsiya bo'yicha joylashgan akkord **uchtovushlik** deyiladi. Uchtovushlikning qaysi holatda bo'lishi shu uchtovushlik tarkibiga kiradigan tertsiyalarning joylashuv tartibi va holatiga bog'liq bo'ladi.

1. Major yoki katta uchtovushlik kat.3 va kich.3 dan tuziladi hamda ikki chetidagi tovushlar sof 5 intervalidan iborat bo'ladi.

2. Minor yoki kichik uchtovushlik kich.3 va kat.3 dan tuziladi, ikki chetidagi tovushlar sof 5 intervalidan iborat bo'ladi.

3. Orttirilgan uchtovushlik ikkita kat.3 dan tuziladi. Ikki chetidagi tovushlar oralig'i ort. 5 dan iborat bo'ladi.

4. Kamaytirilgan uchtovushlik ikkita kich.3 dan tuziladi va ikki chetidagi tovushlar oralig'i kam.5 dan iborat bo'ladi:

Major uchtovushligi	Minor uchtovushligi	Kamaytirilgan uchtovushlik	Orttirilgan uchtovushlik
			

Major va minor uchtovushligidan hosil bo'lgan barcha intervallar ohangdosh intervallarga kiradi. Orttirilgan va kamaytirilgan uchtovushliklardan tuzilgan intervallar esa noohangdosh intervallarga kiradi, ular *ort.5* va *kam.5* dan iborat.

Demak, major va minor uchtovushliklari ohangdosh bo'ladi, orttirilgan va kamaytirilgan uchtovushliklar esa noohangdosh bo'ladi.


Akkord tovushlari tertsiya bo'yicha joylashgan bo'lsa, unga **akkordning asosiy ko'rinishi** deyiladi.

Akkordning har bir tovushi mustaqil nomga ega. Tovushlarning nomlari asosiy ko'rinishdagi akkordning pastdan yuqoriga tomon joylashgan tovushlari hosil qilgan intervallar nomidan kelib chiqadi. Uchtovushlikning eng pastki, ya'ni asosiy tovushi **prima**, ikkinchi yoki o'rta tovushi – **tertsiya**, uchinchi yoki yuqori tovushi – **kvinta** deyiladi.


Agar uchtovushlikda eng pastki tovush tertsiya yoki kvinta bo'lsa, bu uchtovushlik **aylanmasi** deyiladi.

Uchtovushlik ikkita aylanmaga ega, birinchisiga **sektakkord** deyiladi, unda prima tovushi bir oktava yuqoriga ko'chiriladi, ikkinchi aylanmasi **kvartsektakkord** deyiladi, bunda prima bilan tertsiya bir oktava yuqoriga ko'chadi.


Sektakkordning pastki tovushi tertsiya bo'ladi, kvartsektakkordning pastki tovushi esa kvinta bo'ladi:



Sektakkord 6 raqami bilan belgilanadi. Kvartsektakkord esa 6/4 raqamlari bilan belgilanadi. Akkord asosiy tovushdan prima va tertsiya tomon tuziladi. Masalan, re majorda sektakkord tuzish talab etilsa, quyidagicha bo'ladi:



Yoki si minorda kvartsekkord tuzish talab qilinsa, quyidagicha bo'ladi:



Major yoki minor uchtovushliklarining aylanmalarini istalgan tovushdan tuzish va ularning tonalliklarini aniqlash uchun:

1. Akkordning qo'shni tovushlari orasida qaysi xildagi intervallar hosil bo'lishini va;
2. Sekstakkordda yuqori tovushi prima ekanligini, kvartsekkordda esa, o'rta tovush primaligini bilish talab qilinadi.

Quyida major va minor uchtovushliklari aylanishining interval tuzilishi tartibi keltirilgan:

Major sekstakkordi - kich.3 + sof 4;

Minor sekstakkordi - kat.3 + sof 4;

Major kvartsekkordi - sof 4 + kat.3;

Minor kvartsekkordi - sof 4 + kich.3.


Major va minor uchtovushliklari aylanishining interval tuzilishini va ulardagi asosiy tovushlar ko'rinishini bilganda, kerak bo'lgan akkordni tuzish juda oson bo'ladi.

Masalan: re tovushidan major sekstakkordi tuzish talab qilinsa;



si bemol major sekstakkordi hosil bo'ladi.

Re tovushidan minor kvartsekstakkordi tuzish talab qilinsa;



sol minor kvartsekstakkordi hosil bo'ladi va h.k.

Major va minorning asosiy uchtovushliklari

Major va minorning barcha pog'onalaridan uchtovushliklar tuzilishi mumkin. Tabiiy major pog'onalaridan uchtovushlik tuzilganda, ulardan uchta major ekanligini ko'ramiz. Bular 1, 4 va 5-pog'onalaridagi uchtovushliklardir. Har bir uchtovushlik mustaqil nomga ega bo'ladi.


1 - pog'ona uchtovushligi *tonika* uchtovushligi;

4 - pog'ona uchtovushligi *subdominanta* uchtovushligi;

5 - pog'ona uchtovushligi esa *dominanta* uchtovushligi deyiladi.


Bular major uchtovushliklari bo'lganligi sababli major ladi uchun xarakterlidir. Bu uchtovushliklar boshqa uchtovushliklarga qaraganda *lad funktsiyalarini*, ya'ni, turg'un va noturg'un tovushlar munosabatini ko'proq ifodalaydi. Shuning uchun ham ular asosiy uchtovushliklar deb ataladi va katta T, S, D harflari bilan belgilanadi.

Do major C — dur



Minorning asosiy uchtovushliklari esa kichik harflar bilan yoziladi:
t, s, d.

Lya minor a — moll



Garmonik ko'rinishdagi minorda asosiy uchtovushliklarning tuzilishi tabiiy major va minordagidan farq qiladi.

Majorning 6-pog'onasi pasaytirilganda minor subdominanta uchtovushligi hosil bo'ladi va garmonik majorning yanada mayin eshitilishiga yordam beradi. Minorning 7-pog'onasi ko'tarilganda major dominanta uchtovushligi hosil bo'ladi. Bu esa, minorga major ladining ba'zi xususiyatlarini beradi:



C - dur T - S - D - T

I IV₆₄ V₆ I I₆ IV V₆₄ I₆ I₆₄ IV₆ V I₆₄

a - moll t - s - D - t

I IV₆₄ V₆ I I₆ IV V₆₄ I₆ I₆₄ IV₆ V I₆₄

C - dur T - D - T

I V₆ I I₆ V₆₄ I₆ I₆₄ V I₆₄

C - dur T - S - T

I IV₆₄ I I₆ IV I₆ I₆₄ IV₆ I₆₄


Major va minorning yondosh uchtovushliklari. Tabiiy va garmonik major hamda minor pog'onalaridan tuzilgan uchtovushliklar

Tovushqatorning asosiy uchtovushliklar pog'onalaridan tashqari, barcha (2, 3, 6, 7) pog'onalari *yondosh pog'onalar* deyiladi. Ular ladning asosiy uchtovushliklariga nisbatan ikkinchi darajali ahamiyatga egadir.


C-Dur

I II III IV V VI VII (I)


Tabiiy majorda *uchta minorli* va *bitta kamaytirilgan* uchtovushlik yondosh uchtovushlik bo'ladi (7 - pog'ona).




Tabiiy minorda *uchta majorli* va *bitta kamaytirilgan* uchtovushlik yondosh uchtovushlik bo'ladi (2 – pog'ona).



Garmonik majorda ikki va yettinchi pog'onalarda 2 ta kamaytirilgan, 6 – pog'onada birta orttirilgan uchtovushlik hosil bo'ladi.







Garmonik minorda: oltinchi pog'onada birta majorli, 2 va 7 – pog'onalarda ikkita kamaytirilgan va uchinchi pog'onada – birta orttirilgan uchtovushlik hosil bo'ladi.




Uchtovushliklar soni quyidagilardan iborat bo'ladi:

1. Tabiiy major yoki minorda – 3 ta majorli, 3 ta minorli va bitta kamaytirilgan uchtovushlik bo'ladi. Garmonik major yoki minorda 2 ta majorli, 2 ta minorli, 2 ta kamaytirilgan va 1 ta orttirilgan uchtovushlik;



Sifrovka bo'yicha akkordlar ketma-ketligini fortepianoda chalish:



SEPTAKKORDLAR.

Septakkord. Dominantseptakkord va uning aylanmalari


Tertsiya asosida joylashgan, to'rt tovushli akkordga *septakkord* deyiladi. Septakkordning ikki chetidagi tovushlar oralig'i septima intervalini hosil qilganligi uchun bu akkord septakkord nomini olgan.

Musiqada septakkord xilma-xil ko'rinishlarda qo'llaniladi. Major va garmonik minorning 5 – pog'onasidan tuzilgan septakkord eng ko'p tarqalgan septakkordlardan biridir. Bu akkord **dominantseptakkord** deyiladi.

Dominantseptakkord yuqori tomondan kichik tertsiya qo'shilgan major uchtovushligidan (kat.3 + kich.3 + kich.3) tuziladi. Dominantseptakkord tovushlari asosiy tovushdan boshlab sanalganda: prima (akkordning negizi), tertsiya, kvinta va septima (akkord cho'qqisi) lardan iborat bo'ladi. Dominantseptakkord quyidagi belgi bilan yoziladi: - D_7



Dominantseptakkord 3 ta aylanmaga ega, bulardan birinchi aylanma - kvintsektakkord ($D_{6/5}$). Ikkinchi aylanma – tertskvartakkord ($D_{4/3}$) va uchinchi aylanma – sekundakkord (D_2) deb aytiladi.



Dominantseptakkord aylanmalarining nomi, akkordning eng pastki tovushi – negizidan cho'qqisiga qarab tuziladigan tovushlar intervallariga asoslanadi.

Biror tonallik yoki tovushdan dominantseptakkord yoki aylanmalarini tuzish uchun dastlab, akkordni tashkil qiluvchi intervallarning joylashishi va tuziladigan pog'onalarining kelish tartibini bilish zarur.

Dominantseptakkord (D_7) – kat.3 + kich.3 + kich.3; 5 – pog'onadan;

Dominantkvintsextakkord ($D_{6/5}$) – kich.3+kich.3+kat.2; 7– pog'onadan;

Dominanttterskvartakkord ($D_{4/3}$) – kich.3 + kich.2 + kat.3; 2 – pog'onadan;


Dominantsekundakkord (D_2) – kat.2 + kat.3 + kich.3; 4 –pog'onadan tuziladi.

The image displays seven rows of musical notation, each representing a different major key (C-Dur, G-Dur, D-Dur, A-Dur, E-Dur, H-Dur, Fis-Dur). Each row contains a sequence of dominant seventh chords. The first four chords in each row are the diatonic seventh chords of the key: D_7 , $D_{6/5}$, $D_{4/3}$, and D_2 . The last four chords are the dominant seventh chords of the adjacent keys: D_7 , $D_{6/5}$, $D_{4/3}$, and D_2 for the key of D-Dur, and so on.

Dominantseptakkord noohangdosh akkordlarga kiradi. Uning tarkibida ikkita noohangdosh interval bor, bular kich.7 va kam.5 intervallaridir.

The image shows a musical staff with a treble clef and a key signature of one sharp (F#), labeled 'C - dur'. It displays a dominant seventh chord (V₇) in C major. The chord is composed of the notes C, E, G, and B. The intervals between the notes are labeled: 'kich.7' (minor seventh) between G and B, and 'kam.5' (minor fifth) between C and G.

Dominantseptakkord kvintasiz, asosiy tovushi uchlantirilgan to'liq bo'lmagan tonika uchtovushligiga yechiladi: bunda 5, 7 va 2 – pog'onalar 1 – pog'onaga o'tadi, 4 – pog'ona esa 3 – pog'onaga o'tadi, 5 – pog'ona kvarta yuqoriga ko'chadi.



Kvintsektakkord primasi juftlantirilgan, to'liq bo'lmagan tonika uchtovushligiga yechiladi: 7 va 2 – pog'onalar 1 – pog'onaga, 4 – pog'ona 3 – pog'onaga o'tadi, 5 – pog'ona o'z o'rnida qoladi.



Tertskvartakkord asosiy tovushi oktavaga juftlantirilgan, to'liq tonika uchtovushligiga yechiladi: 2- pog'ona 1 – pog'onaga, 4 – pog'ona 3 – pog'onaga o'tadi, 5 – pog'ona o'z o'rnida qoladi; 7 – pog'ona esa oktavaga juftlantirilgan 1- pog'onaga o'tadi.



Sekundakkord primasi juftlantirilgan tonika sekstakkordiga yechiladi: 6 – pog'onasi 3 – pog'onaga o'tadi, 5 – pog'ona o'z o'rnida qoladi, 7 va 2 – pog'onalar 1 – pog'onaga o'tadi:

C – dur

a – moll

Yetakchi septakkordlar (DVII₇). Ikkinchi pog'ona septakkordi (SII₇)

Septakkordlar orasida dominantseptakkorddan tashqari yetakchi septakkordlar ham ko'p qo'llaniladi. Ular tabiiy va garmonik majorning, shuningdek, garmonik minorning 7 – pog'onasida tuziladi va **yetakchi septakkord** deyiladi.

Yetakchi septakkordning ikki chetidagi tovushlar tabiiy majorda kichik septima intervalini hosil qiladi va **kichik yetakchi septakkord** deyiladi. Kichik yetakchi septakkord ustki tomonidan katta tertsiya qo'shilgan kamaytirilgan uchtovushliklardan tuziladi (kich.3, kich.3, kat.3).

Yetakchi septakkordning ikki chetidagi tovushlari garmonik major va minorda kamaytirilgan septimani tashkil qiladi. Shuning uchun ham u

kamaytirilgan yetakchi septakkord deyiladi. Kamaytirilgan yetakchi septakkord kamaytirilgan uchtovushlikdan iborat bo'lib, ustki tomonidan kichik tertsiya qo'shiladi (kich.3, kich.3, kich.3). Yetakchi septakkord quyidagicha yoziladi – **DVII₇**.

C – dur tabiiy garmonik a – moll
garmonik

kich. 7 kam. 7 kam. 7

kich.7 VII₇ kam.7 VII₇ kam. VII₇

Yetakchi septakkordlar ham uchta aylanmaga ega bo'lib, ular asosiy va aylanma septakkordlar tarzida qo'llaniladi:

C-Dur G-Dur D-Dur

VII₇ VII_{6/5} VII_{4/3} VII₂ VII₇ VII_{6/5} VII_{4/3} VII₂ VII₇ VII_{6/5}

A-Dur E-Dur

VII_{4/3} VII₂ VII₇ VII_{6/5} VII_{4/3} VII₂ VII₇ VII_{6/5} VII_{4/3}

H-Dur Fis-Dur

VII₂ VII₇ VII_{6/5} VII_{4/3} VII₂ VII₇ VII_{6/5}

Cis-Dur

VII_{4/3} VII₂ VII₇ VII_{6/5} VII_{4/3} VII₂

Yetakchi septakkordlar: a) tertsiyasi juftlantirilgan tonika uchtovushligiga yyechiladi:

C – dur a – moll

(kam.) kich. VII₇ kam. VII₇

b) yoki D_7 hamda uning aylanmalari orqali T ga yyechiladi:

The image displays musical notation for the resolution of the second step of the seven-chord scale (SII_7) to the tonic (T) in various major keys. Each key has a staff with chords and their Roman numeral symbols below them.

- C-Dur:** $VII_7 D65 T$, $VII_65 D43 T$, $VII_{43} D2 T$, $VII_2 D7 T$, $VII_7 D65 T$, $VII_65 D43 T$, $VII_{43} D2 T$
- D-Dur:** $VII_2 D7 T$, $VII_7 D65 T$, $VII_65 D43 T$, $VII_{43} D2 T_6$, $VII_2 D7 T$, $VII_7 D65 T$
- E-Dur:** $VII_65 D43 T$, $VII_{43} D2 T_6$, $VII_2 D7 T$, $VII_7 D65 T$, $VII_65 D43 T$, $VII_{43} D2 T_6$
- H-Dur:** $VII_2 D7 T$, $VII_7 D65 T$, $VII_65 D43 T$, $VII_{43} D2 T_6$, $VII_2 D7 T$
- Cis-Dur:** $VII_7 D65 T$, $VII_65 D43 T$, $VII_{43} D2 T_6$, $VII_2 D7 T$, $VII_7 D65 T$
- Unlabeled staff:** $VII_65 D43 T$, $VII_{43} D2 T_6$, $VII_2 D7 T$

Septakkordlarning keng tarqalgan turlaridan yana biri, bu ikkinchi bosqich septakkordidir. Ikkinchi bosqich septakkordining tertsiyasi, kvintasi va septimasi subdominantaga tegishli, primasi esa tovushqatorning ikkinchi pog'onasi tovushi bo'lganligi uchun ushbu akkord SII_7 bilan belgilanadi.

SII_7 tovushqatorning ikkinchi pog'onasidan boshlab tuziladi. Uning intervallari kich.3., kat.3., kich.3. ni, chetki tovushlari esa kich.7 ni tashkil etadi.

First system of musical notation showing chords: F-Dur, B-Dur, Es-Dur, As-Dur, Des-Dur, Ges-Dur, Ces-Dur. All chords are marked as SII₇.

Subdominantseptakkord dominantseptakkord va uning aylanmalari orqali tonikaga yechiladi.

17

Akkordlar engarmonizmi. Engarmonik akkordlar tengligining ikki turi. Akkordlarning musiqada qo'llanishi

Musiqqa amaliyotida akkordlar engarmonizmi ko'p uchraydi. Bunda akkordni hosil qilayotgan tovushlar majmuasining turlicha atalishi imkoniyati borligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Akkordlar engarmonizmi deb eshitalishi bir xil, lekin yozilishi va nomlanishi har xil bo'lgan akkordlarga aytiladi. Akkordlar engarmonizmi uning tarkibiga kiradigan alohida tovushlar va intervallarga asoslanadi.



Akkordlardagi engarmonik tenglikning ikki xil ko'rinishi mavjud:

1. Akkorddagi barcha tovushlar almashtiriladi, biroq, ularning interval tuzilishi o'zgarmaydi:



2. Akkorddagi barcha yoki alohida tovushlar engarmonik jihatdan almashtiriladi, biroq, tovushlarning interval tuzilishi o'zgarmaydi:



Har qanday musiqqa uchtdan kam bo'lmagan tovushlar majmuasidan iborat bo'lsa, unda akkordlar hosil bo'ladi. Ularning musiqqa amaliyotida

muhim o'rni bor, chunki aynan akkordlar tovushlar harakatini muvofiqlashtiradi, bundan tashqari akkordlar bir-biri bilan ma'lum qonuniyatlar asosida bog'lanadi.

Tasviriy san'atda ranglarning xili va turlari ko'pligi qanchalik ahamiyatga ega bo'lsa, musiqa da akkordlar, ya'ni ko'p ovozlikning turlicha variatsiyalari badiiy-musiqiy mazmunning yanada yorqinroq aks yettirilishini ta'minlaydi. Shu bois, musiqa asari keng musiqiy garmoniya elementlariga boy bo'lsa, ya'ni akkordlar, ko'p ovozlik imkoniyatlaridan keng foydalanilsa, musiqa asarining badiiy mazmunni ifodalash imkoniyatlari shunchalik kengayadi va ushbu musiqaning tinglovchisi mumkin qadar ko'proq musiqiy ifodani o'ziga qabul qiladi.

Akkord ko'pincha shunday tarzda ifodalanadiki, uning bir necha yoki barcha tovushlari birdaniga bir necha oktavada ijro etiladi. Bunday usul *akkordning ikkilanishi* deb aytiladi. Masalan:



Aksincha, akkord to'liqsiz ham bo'lishi mumkin. Uni aniqlash uchun tovushlarini xayolan to'ldirish lozim.



AKKORDLARNING LADDAGI O'ZARO MUNOSABATLARINING TIZIMLANISHI.

Tabiiy major va tabiiy minor intervallari

Tabiiy major va tabiiy minor tovushqatorining pog'onalari faqat diatonik interval hosil qiladi. Istalgan har bir pog'onadan prima, sekunda, tertsiya, kvarta va boshqa intervallar tuzilishi mumkin. Asosiy vazifa bulardan har birining sifat miqdorini, ya'ni, qaysisi sof, kichik yoki katta ekanligini aniqlashdan iborat. Yondosh intervallardan har birining umumiy soni ladning yetti pog'onasi soniga teng.

Jadval yordamida intervallarni o'rganish uchun quyidagilarga amal qilish zarur:


Tabiiy major va tabiiy minorda o'xshash intervallar hosil bo'ladi va ularning soni bir-biriga tengdir.

The image displays musical notation for intervals from I to VII on a single staff. Each interval is represented by a pair of notes on the staff, with the interval number (I through VII) written above the notes. The intervals are labeled as follows:


- I: Sof prima
- II: Kichik sekunda
- III: Katta sekunda
- IV: Kichik tertsiya
- V: Katta tertsiya
- VI: Sof kvarta
- VII: (No label)




Orttirilgan kvarta




Kamaytirilgan kvinta




Sof kvinta



Kichik seksta




Katta seksta



Kichik septima



Katta septima



Sof oktava

SUBDOMINANTSEPTAKKORD


Ladning yuqorigi yetakchi pog'onasida (II-) tuziladigan septakkord subdominanta guruhiga kiradi va ushbu funksiyasining asosiy septakkordi hisoblanganligi sababidan *subdominantseptakkord* deyiladi. Belgilanishi– SII_7 , uni tashkil qiladigan pog'onalar – II-, IV-, VI-, I-.

Tabiiy majorda tuzilgan subdominantseptakkordning intervalli tarkibi – **kich.3+kat.3+kich.3**. Uning chekka tovushlari kichik septimani hosil qiladi, asosida esa minorli uchtovushlik joylashadi. Shuning uchun, uni *kichik minorli subdominantseptakkord* deb ataydi.

Gamonik major va tabiiy minorning II-pog'onasida *kichik subdominantseptakkord* (asosida kamaytirilgan uchtovushlik) tuziladi. Uning intervalli tarkibi – **kich.3+kich.3+kat.3**.

Subdominantseptakkord ham uchta aylanmaga ega. Ulardan SII_5^6 ko'proq qo'llaniladi. SII_5^6 - IV-pog'onadan, SII_3^4 - VI-pog'onadan, SII_2 - I- pog'onadan tuziladi.

Subdominantseptakkordning yechilishi:

1) Domina nta 
uchtovushligiga o'tishi xuddi $\text{D}_7 \rightarrow \text{Tonika}$ ga yechilgandek bajariladi.

2) Tonika uchtovushligiga yechilishi – $\text{VII}_7 \rightarrow \text{Tonika}$ ga yechilish qoidasiga asoslanadi. Bu akkordning yechilishida ham Tonika

akkordlari juftlantirilgan tertsiya tovushi bilan keladi.



- 3) **D₇** akkordlari orqali tonikaga yechilishi: **SII₇** bilan **D₇** ikkita umumiy tovushga egadir. Akkordlar bog'lanishida ular o'z o'rnida qoladi, qolgan ikkita tovush (VI- va I- pog'onalar) bir pog'ona pastga tushadi.



D₇, **VII₇** va **SII₇** akkordlar ladning *bosh septakkordlari* deb hisoblanadi. Ular ladning noturg'n funktsiyalari yaqqol vakillari bo'lib, bosh septakkordlar sifatida asarlarda tez-tez qo'llaniladi.

XULOSA

Musiqaning nazariy asoslari Urmaviy, Marog'iy, Abu Rayxon Beruniy, Najmiddin Kavkabiy, Aburahmon Jomiy kabi allomalarning risolalarida keng yoritilgan. Nazariy asarlar musiqaning monodiya hususiyatiga asoslangan bo'lib, tovushlarning o'zaro munosabatlari, tovushqator va ritm haqidagi ta'limotlardan iborat.

Hozirgi kunda ham musiqa nazariyasi fanida akkordlar mavzusi yetarlicha yoritilishi va muhim o'rinda turishi zarur. Zotan, turli janrlardagi o'zbek xalq kuy-qo'shiqlari juda rang-barangdir.

Ikkita va undan ortiq tovushning bir vaktida uyg'unlashishi *ohangdoshlikni* hosil qiladi. Bu tariqada, garmonik interval ham ohangdoshlik sifatida hisoblanishi tayin. Ko'p ovozlik musiqasida turli xil ohangdoshliklarning hosil bo'lishi samimiydir. Bunday yo'l bilan yuzaga kelgan *ohangdoshliklar turlicha tuzilishga ega* bo'lishi mumkin.

Akkord – bu tertsiya bo'yicha joylashgan yoki joylashishi mumkin bo'lgan uchta va undan ortiq tovushdan iborat ohangdoshlik hisoblanadi.

Akkordlar musiqani jilolantiradi, qo'shimcha garmoniya bilan boyitadi.

Xulosa qilib aytganda, akkordlar, ya'ni uch tovushliklar musiqaning jilosi, ko'rki, bezagi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. *Azimova O.N.* Garmoniya. Nazariy kurs. T., 2000.
2. *Akbarov I.A.* Musiqa lug'ati. Maxsus muharrir T.B.G'ofurbekov.
2- nashri, T., 1997.
3. *Alekseev B.* Zadachi po garmonii. M., 1982.
4. *Vaxromeev V.A.* Musiqaning elementar nazariyasi. T., 1983.
5. *Dubovskiy I, Evseev S, Sposobin I, Sokolov* «Garmoniya darsligi». T., 1987 Kurs teorii muziki. Muharrir A.L.Ostrovskiy. L., 1978.
6. *Zelinskiy V.* Kurs garmonii v zadachax. M., 1971.
7. *Krasinskaya L., Utkin V.* Elementarnaya teoriya muziki. M., 1983.
8. *Mojjevelov B.* Melodii dlya garmonizatsii. L., 1982.
9. Muzikalniy ensiklopedicheskiy slovar. Bosh muharrir *G.A.Keldish.* M., 1990.
10. *Mutli. A.* Sbornik zadach po garmonii. M., 1986
11. *Myasoedov A.* Uchebnik garmonii M., 1980
12. Osnovi teoreticheskogo muzikoznaniya. Muharrir *M.I.Roytershteyn.* M., 2003.
13. *Ostrovskiy L.A.* Metodika teorii muziki i solfedjio. L., 1970.
14. *Raximov Q.* Musiqaning elementar nazariyasi. Ma'lumotnoma. T., 2007.
15. *Sposobin I.V.* Elementarnaya teoriya muziki. M., 1985.
16. *Sposobin I.V.* Musiqa shakli. T. 1985.
17. *Tyulin Yu.N.* Uchebnik garmonii. M., 1988.